XALQ DEPUTATLARI KO'KDALA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

181214, Ko‘kdala tumani Nurafshon ko‘chasi 47-uy, +998 94 174 3946, Faks: (+99875) 230-14-59, t.kukdala@exat.uz

2025-yil 30-dekabr VII-18-128-4-224-K/25 Ko'kdala tumani

2026-yilda Ko‘kdala tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xatiga hamda O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2026- yil 12 noyabrdagi 24-127593-sonli -sonli xati, Qashqadaryo viloyat hokimining “Qashqadaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida”gi qaror loyihasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Ko‘kdala tumanidagi mahallalarni iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i ba’zaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

-Bunda, yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1-0,7 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin.

3.Ko‘kdala tumanida 2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4.2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5.Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi VII-5-7-4-224-K/25 -sonli qarori 2026-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

6.Mazkur qaror “e-qaror.gov.uz” elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga yetib borishi inobatga olinsin.

7.Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

8.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Xo‘jayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Boboqulovlar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **DJURAYEV XURRAM ABDURAZIKOVICH**

Xalq deputatlari Ko'kdala tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-128-4-224-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/R	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi (noturar joy)		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi (turar joy)	
		Koeffitsent miqdori	Soliq stavkasi 1 kv.m uchun, so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq stavkasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1.	Baxt MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
2.	Guliston MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
3.	Taloqtepa MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
4.	Sho‘rquduq MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
5.	Xushali MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
6.	Qanotli MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
7.	Naymansaroy MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
8.	Paxtalisoy MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
9.	Soybo'yi MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
10.	Torjilg‘a MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
11.	Toshli MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
12.	Umakay MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
13.	O‘tamayli MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
14.	Xarduri MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
15.	Chorvador MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
16.	Sho‘rbozor MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
17.	Eski anxor MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
18.	Yashiltepa MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
19.	Zum MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
20.	Ayritom MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
21.	G‘allakor MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
22.	Quchqorbuloq MFY	0,83	2 956,13	0,92	267,07
23.	Qumdaryo MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
24.	Oltin boshoq MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
25.	Suvliq MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
26.	To‘qmor MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
27.	Uymovut MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07

28.	Chiyal MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
29.	Chuvulloq MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
30.	Manguyurt MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
31.	Annaruz MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
32.	Beglamish MFY	0,88	3 134,21	0,92	267,07
33.	Ko‘kdala MFY	0,98	3 490,37	1,02	296,10
34.	Oltin dala MFY	0,98	3 490,37	1,02	296,10
35.	Xo‘jaobod MFY	0,98	3 490,37	1,02	296,10

Xalq deputatlari Ko'kdala tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-128-4-224-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Koʻkdala tumanida 2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub	
		Koeffitsiyent	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koeffitsiyent*	*Soliq stavkasi*
1.	Koʻkdala tumani	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Ko'kdala tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-128-4-224-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Tuman va shaharlar nomi	Faoliyat turlari kesimida		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Koʻkdala tumani	1,20	1,4	1,2